

## IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQUISH

**Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Savdo ishi” kafedrasida dotsenti

### Annotatsiya

Maqolada korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarish jarayonini rivojlantirish modellari tahlil qilingan bo‘lib, ipakchilik korxonalarida ushbu modellarni joriy etishning afzalliklari yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** korxonalar, ipakchilik, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon, modellar, tizim, klaster, yondashuv, tahlil, samaradorlik.

### Аннотация

В статье на основе исследования моделей развития процесса управления инновационной деятельностью предприятий представлены мнения о преимуществах внедрения моделей развития процесса управления инновационной деятельностью предприятий шелковой промышленности.

**Ключевые слова:** предприятие, шелководство, инновационная деятельность, инновационный процесс, модели, система, кластер, подход, анализ, эффективность.

### Abstract

The article, based on a study of models for the development of the process of managing innovative activities of enterprises, presents opinions on the advantages of introducing models for the development of the process of managing innovative activities of enterprises in the silk industry.

**Keywords:** enterprise, sericulture, innovation activity, innovation process, models, system, cluster, approach, analysis, efficiency.

### KIRISH

Korxonalarda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion boshqaruv modellaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday modellar orqali korxonalar innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishi, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqishi, texnologik yangilanishni tezlashtirishi hamda global bozorlarda o'z pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin. Ipakchilik tarmog'ida ham innovatsion faoliyatni samarali boshqarish tarmoq korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish imkonini beradi. Pillachilik tarmog'i korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonini rivojlantirish modellarining eng afzallarini aniqlash uchun, avvalo, bu modellarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari bo'yicha xorijiy olimlardan Klayn, Rozenberg, R. Rosvell, Akio Morita, Fumio Kodama, MDH

mamlakatlari olimlaridan A. Ye. Ivanitskaya, A. Panfilova, S. A. Samal, A. Ye. Tyulin tomonidan innovatsion faoliyatni boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari tadqiq etilgan. O'zbekistonda esa korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqaruv tizimini o'rganish bo'yicha N. Q. Yo'ldoshev, G. A. Xamdanova, A. J. Toshboyev, I. S. Ochilovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ipakchilik tarmog'ini rivojlantirish yo'nalishida esa Sh. O'roqov, B. Q. Sharipov va O. Jumayev kabi olimlarning ilmiy ishlari mavjud.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ipakchilik tarmog'idagi iqtisodiy va boshqaruv muammolari o'rganilgan. Shuningdek, sohani rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan xorijlik va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari hamda o'quv adabiyotlari tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy va statistik tahlil, kuzatish kabi usullardan foydalanilgan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Innovatsion faoliyatni boshqarish modeli — bu korxonada yangilik yaratish, joriy etish va ularni samarali tijratlashtirish jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda nazorat qilishga xizmat qiladigan nazariy-amaliy konsepsiyadir. Uning asosiy vazifasi — korxonada innovatsiya jarayonining barcha bosqichlarini (g'oyadan tortib bozorda tijratlashtirishgacha) maqsadli, samarali va resurslarni tejagan holda amalga oshirishni ta'minlashdir. Innovatsion faoliyatni boshqarish modeli strategik raqobatbardoshlikni, ya'ni korxonaning bozorda raqobatchilardan ilgarilashini ta'minlaydi, bozor talabiga tezkor javob berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, innovatsiya jarayonida moliyaviy, intellektual va mehnat resurslaridan maqsadli foydalaniladi, innovatsion g'oyalarni saralash va baholash orqali xavf-xatarlar minimallashtiriladi.

Ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarishda bir nechta modellar mavjud. Ular, asosan, innovatsiya jarayonining xususiyati va boshqaruv usuliga ko'ra farqlanadi. Quyida innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonini rivojlantirish modellarining asosiy turlari keltirilgan:

1. Tizimli model — innovatsion faoliyatni yagona tizim sifatida ko'radi. Barcha resurslar (moliyaviy, inson kapitali, texnologiya, axborot) o'zaro uyg'unlashtiriladi. Kompleks boshqaruv va yuqori samaradorlikka yo'naltirilgan.

2. Protsessual model — innovatsiya jarayoni bosqichma-bosqich (g'oya → ilmiy tadqiqot → ishlanma → tijratlashuv) tarzda boshqariladi. Rejalashtirish, nazorat va baholash funksiyalari kuchli. Ko'proq yirik sanoat korxonalarida qo'llaniladi.

3. Klasterli model — korxonalar, ilmiy muassasa, universitet va davlat hamkorligi asosida yaratiladi. Ilmiy salohiyat va amaliyot uyg'unlashadi, sinergetik samara beruvchi innovatsion muhit shakllanadi.

4. Integrativ model — innovatsiya kompaniyaning umumiy strategiyasiga bog'lanadi. Innovatsiya faqat texnik yangilik emas, balki biznes-modelning bir qismi

sifatida qaraladi. Korxonada innovatsiya barqaror rivojlanish omillaridan biriga aylanadi.

5. Raqamli model — innovatsiya jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar (AI, Big Data, IoT, Digital Twin, Blockchain)dan foydalaniladi. Qaror qabul qilish tezlashadi, prognozlarning aniqligi oshadi. Ayniqsa, Industry 4.0 va 5.0 talablariga javob beradi.

6. Innovatsion spiral modellari — *Triple Helix* (uch tomonlama spiral) – universitet, biznes va davlat hamkorligi; *Quadruple Helix* – jamiyat va fuqarolik institutlari ham qo‘shiladi; *Quintuple Helix* – atrof-muhit va ekologik omillarni ham qamrab oladi. Innovatsiya jarayoni uzluksiz aylanma shaklida rivojlanadi.

Pillachilik tarmog‘idagi korxonalarda ham innovatsion faoliyatni boshqarishni rivojlantirish maqsadida yuqorida keltirilgan modellarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, pillachilik tarmog‘i jahon miqyosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xom ipak, ip gazlama va tayyor mahsulotlarga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib borayotgan hozirgi sharoitda tarmoq korxonalarining barqaror rivojlanishi innovatsion faoliyatni samarali boshqarishga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, turli modellarni joriy etish quyidagi ahamiyatlarga ega:

1. Tizimli model ahamiyati shundaki, bu model pilla yetishtirishdan tortib ipak gazlamalar ishlab chiqarish va eksportga chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona tizim sifatida boshqarish imkonini beradi. Resurslar (tutzorlar, pilla qurtlari, energiya, mehnat)ni optimal taqsimlash orqali samaradorlik oshadi.

2. Protsessual model ahamiyati shundaki, innovatsiya jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, ya’ni yangi turdagi ip gazlama ishlab chiqish → tajriba-sanoat partiyasi → bozorga chiqish ketma-ketligini amalga oshirish imkonini beradi. Bu xavf-xatarlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini nazorat qilishni kuchaytiradi.

3. Klasterli model ahamiyati shundaki, tutzorlar, pillachilik fabrikalari, tikuvchilik korxonalari, ilmiy markazlar va davlat qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarni birlashtiradi. Hududiy rivojlanishni ta’minlaydi, mahalliy va xorijiy bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi.

4. Integrativ model ahamiyati shundaki, bu model ilmiy tadqiqot muassasalarida ishlab chiqilgan yangi ipak qurtlari zotini ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi. Ishlab chiqarish va bozor talablarini uyg‘unlashtirish orqali bozordagi ehtiyojlarga tez moslashish imkoniyatini oshiradi.

5. Raqamli model ahamiyati shundaki, bu model AI, IoT, Digital Twin texnologiyalari orqali tutzorlar holatini monitoring qilish, pilla qurtlarini oziqlantirish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Mahsulot sifatini raqamli nazorat qilish va eksport jarayonlarini raqamli logistika orqali yengillashtirishni ta’minlaydi.

6. Innovatsion spiral modeli ahamiyati shundaki, ilmiy ishlanmalar → pillachilikda amaliyot → bozorga chiqish → yangilangan innovatsiya jarayoni orqali uzluksiz rivojlanishni ta’minlaydi. Fan, davlat va biznes hamkorligini mustahkamlaydi (1-jadval).


**1-jadval.**
**Pillachilikda innovatsion faoliyatni boshqarish modellari tahlili<sup>1</sup>**

<b>Model turi</b>	<b>Ahamiyati</b>	<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
Tizimli model	Butun pillachilik zanjirini (tutzor → pilla qurti → ipak ishlab chiqarish → eksport) yagona tizimda boshqarish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Resurslarni optimal taqsimlash</li> <li>- Barqaror samaradorlik</li> <li>- Iqtisodiy nazorat kuchli</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Joriy etish qimmat</li> <li>- Katta menejment salohiyati talab qiladi</li> </ul>
Protsessual model	Innovatsiya jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish va nazorat qilish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xavflarni kamaytiradi</li> <li>- Mahsulot sifatini oshiradi</li> <li>- Yangi ishlanmalarni tizimli sinovdan o'tkazish imkoni</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Vaqt talab qiladi</li> <li>- Jarayonda ortiqcha byurokatiya bo'lishi mumkin</li> </ul>
Klasterli model	Hududiy pillachilik korxonalarini, ilm-fan va davlat qo'llab-quvvatlashini birlashtiradi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Infratuzilma samaradorligi</li> <li>- Bozordagi raqobatbardoshlik oshishi</li> <li>— Ilmiy ishlanmalarni tez joriy etish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Klaster ishtirokchilari orasida manfaatlar kelishmovchiligi bo'lishi mumkin</li> <li>- Dastlabki sarmoya katta</li> </ul>
Integrativ model	Fan, ishlab chiqarish va bozor ehtiyojlarini uyg'unlashtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish</li> <li>- Mijoz talabiga tez javob berish</li> <li>- Yangilanish tezligi yuqori</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ilmiy baza yetarli bo'lmasa, model to'liq ishlamaydi</li> <li>- Xorijiy texnologiyalarga bog'liqlik xavfi</li> </ul>
Raqamli model	IoT, AI va Digital Twin orqali pillachilik jarayonlarini raqamli boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Resurs tejamkorligi</li> <li>- Sifat nazorati kuchli</li> <li>- Eksport jarayonlari samarali</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Raqamli infratuzilma va IT mutaxassislar talab qiladi</li> <li>- Kiberxavfsizlik muammolari</li> </ul>
Innovatsion spiral model	Fan → amaliyot → bozor → innovatsiya qayta sikl asosida rivojlanish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Uzluksiz rivojlanish</li> <li>- Davlat, biznes va fan hamkorligi</li> <li>- Yangi mahsulot turlari yaratiladi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Barcha ishtirokchilarning doimiy hamkorligi shart</li> <li>- Moliyaviy qo'llab-quvvatlovsiz to'xtab qolishi mumkin</li> </ul>

Pillachilik tarmog'ida innovatsion faoliyatni boshqarish modellarini qo'llash orqali mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, yangi turdagi ipak mahsulotlarini yaratish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish mumkin. Shu sababli, ushbu modellar pillachilik

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

tarmog‘ini yuqori texnologiyali, eksportga yo‘naltirilgan va barqaror sohalardan biriga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (2-rasm).



**2-rasm. Pillachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish modellari afzalliklari va kamchiliklarining qiyosiy tahlili<sup>1</sup>**

Raqamli va innovatsion spiral modellari eng ko‘p ustun jihatlarga ega. Klasterli va integrativ modellar ham kuchli afzalliklarga ega, biroq muayyan kamchiliklarga ham ega. Tizimli va protsessual modellar esa asosiy baza sifatida xizmat qiladi, ammo zamonaviy raqamlashtirish va integratsiya jarayonlariga nisbatan imkoniyatlari cheklangan.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, tizimli va klasterli modellar pillachilikda barqaror hamda uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Protssesual model xavfni kamaytiradi va mahsulot sifatini oshiradi. Integrativ va raqamli modellar esa zamonaviy texnologiyalar hamda bozor talablariga javob berish imkonini yaratadi. Innovatsion spiral model pillachilikda uzluksiz innovatsiya jarayonini ta‘minlaydi.

Pillachilik tarmog‘i va uning korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish uchun turli modellarni qo‘llash mumkin. Biroq har bir modelning o‘z afzalliklari va cheklovlari mavjudligi sababli, yagona modelni emas, balki ularning kompleks tarzda qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir.

Tizimli model — pillachilikning butun qiymat zanjirini (tutzorlar → pilla ishlab chiqarish → ipak xomashyosi → tayyor mahsulot → bozor) qamrab olish imkonini

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

beradi. Bu model pillachilik tarmog'ining umumiy rivojlanish konsepsiyasini belgilashda asosiy platforma sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Protsessual model — innovatsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda samarali (yangi texnologiyalarni joriy etish, seleksiya ishlari, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish). U pillachilikda amaliyotga yaqin qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi.

Klasterli model — O'zbekiston uchun ayni paytda juda dolzarb, chunki pillachilik asosan hududiy tarmoqlar asosida rivojlanadi. Klasterlashuv seleksionerlar, dehqonlar, qayta ishlovchi korxonalar va eksportyorlarni birlashtirib, tarmoq samaradorligini oshiradi.

Integrativ model — universitetlar, ilmiy markazlar va biznes subyektlari hamkorligini ta'minlab, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Bu model pillachilikda seleksiya, biotexnologiya va mahsulot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli model — zamonaviy pillachilikda eng katta imkoniyatlarga ega. *Digital Twin, IoT, AI* texnologiyalari asosida tutzorlarni monitoring qilish, mahsulot sifatini onlayn nazorat qilish va bozorlarda raqamli savdo kanallarini yo'lga qo'yish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Innovatsion spiral modeli (Triple/Quadruple Helix) — davlat, biznes, ilm-fan va jamiyat hamkorligi asosida barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Bu model pillachilikda davlat dasturlari, mahalliy hamjamiyat manfaatlari va eksport yo'nalishlarini uyg'unlashtiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi tavsiyalar beriladi:

— Tarmoq miqyosida: klasterli va raqamli modellarni uyg'unlashtirish zarur. Bu hududiy markazlashgan boshqaruvni va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

— Korxonada miqyosida: protsessual, integrativ va raqamli modellarni qo'llash maqsadga muvofiq, chunki har bir korxonada texnologik yangilanish, ilmiy ishlanmalarni joriy etish va raqamli boshqaruv raqobat ustunligini ta'minlaydi.

— Strategik istiqbol uchun: innovatsion spiral modelni joriy etish zarur. Bu davlat dasturlari, ilm-fan va biznesni uyg'unlashtirib, pillachilikni eksportbop va barqaror tarmoqqa aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, pillachilikda klasterli + raqamli + integrativ modellarni uyg'unlashtirish eng maqbul yo'l hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-630-сон, 2020 йил 24 июль. lex.uz.

2. Иваницкая А. Е. Функциональный подход к управлению инновационной деятельностью предприятий. Дисс. канд. экон. наук. Владимир, 2014.

3. Самаль С. А. Современные методы управления инновационной деятельностью на предприятиях. // Инновационные технологии в экономике, 12.10.2016. URL: <http://elibrary.miu.by/journals!/item.eiup/issue.48/article.1.html>.

4. Тюлин А. Е. Повышение конкурентоспособности инновационно активных предприятий на основе создания и применения ключевых компетенций. Дисс. канд. экон. наук. Москва, 2017.

5. Очилов И. С. Кластер тизимида инновацион самарадорлик масалалари. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали, №2, март–апрель, 2019 йил.

6. Жумаев О. С. Ипакчилик корхоналарида маркетинг фаолиятини бошқариш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2024 йил.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, oktabr, 10-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**